

# Tong yulduzi

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

N:8 (67173)  
2018-yil 19-fevral

[www.tongyulduzi.uz](http://www.tongyulduzi.uz)

ISSN - 2010-6092

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiga boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasি

«BOYLIKNI BOLALIKDAN  
ASRANG!»  
tanloviga

NE'MATNI  
BORIDA  
QADRIAYLIK!



O'shanda 6-sinfda  
o'qirdim. Geografiya  
fani o'qituvchimiz  
bizni tog'ga sayohatga  
olib chiqqandi. Tabiat  
qo'ynidagi maysalar  
asta tebranib, «Xush  
kelibsiz», deyayotgan-  
day edi, go'yo. Biz zilol  
suvlardan ichdik, maz-  
za qilib lolalar terdik.  
Shunda ustozimiz:

— Bolalar, tabiatga ozor  
bermang, suvni ifloslantir-  
mang, — dedi. Biroq, men  
bunga parvo qilmay, oyijonimga bir quchoq lola terib  
oldim.

Sovg'anı onamga berga-  
nimda, gullarni achinibgina  
suvga solib qo'yanlaridan  
hayron bo'dim. Axir tog'da  
lola ko'p, tabiat in'omlari  
esa cheksiz-kui! Ularning  
nigohidan shuni uqdimki,  
tabiatning har bir ne'matini  
asrab-avaylamoq lozim ekan.  
Hatto uuda ham chiroqdan  
foydalananmagan vaqtimizda  
uni o'chirib qo'yish, suvni be-  
hudaga oqizib qo'ymasligimiz  
kerak. Men bu voqeadan  
so'ng, oddiy kundalik qoi-  
dalariga riosa qilishni odat  
qildim.

Layout ESONMURODOVA,  
Qashqadaryo viloyati,  
Kitob tumanidagi  
5-umumta'l'm maktabining  
9-«A» sinif o'quvchisi

## BOBOSIGA SOVG'A TAYYORLAGAN

5-bet

## AZIZA

USHBU SONDA:

SERMAZMUN  
SAYOHAT

2-bet

USTOZNI XAFA  
QILMAYMIZ

4-bet


QO'SHNI  
BOLANING  
HASRATI  
yoxud yana shargona  
tarbiyaga zid seriallar  
haqida

3-bet

ORZIQIB  
KUTILGAN  
BAYRAM

7-bet

KITOB  
QALBNI  
YORITAR



Sohibqiron Amir Temur  
bobomiz «Kitob barcha  
bunyodkorlik, yaratuv-  
chanlik va aql-idrokning,  
ilm-u donishning asosidir,  
hayotni o'rgatuvchi  
murabbiyidir», deb bejiz  
aytmagan.

Bizning maktabda ham  
kuni kecha kitob marafoni  
o'tkazildi. Tadbirda ta'l'm  
maskanimizning barcha  
o'quvchilari faoli ishtirok  
etdi. Jumladan, 2-«B» sinif  
o'quvchilari marafonda  
ota-onalari, bobo-buvilar  
bilan birga o'zlariga yoqqaq  
kitoblardan xarid qilishdi.  
Men ham oyim bilan Xu-  
doyerdi To'xtaboyevning  
«Sariq devni minib» kitobini  
sotib oldim. Shuningden,  
aksiyada Birinchi Prezident  
yozgan kitoblar haqida  
ma'lumotlar berildi. Ushbu  
marafondan juda katta  
taassurot oldim.

Shunday ajoyib yurtda  
tug'ilganimdan, buyuk  
shaxslarning avlodini ekan-  
ligimdan faxrlanaman. Fursatdan  
foydalananib, bu tadbirni tashkil etgan  
kutubxonachi Shahnoza  
To'rayevaga butun sinifimiz  
nomidan o'z minnatdorligimizi bildiramiz.

Malika SHODMONOVA,  
Buxoro viloyati, G'ijduvon  
tumanidagi 43-umumta'l'm  
maktabining 2-«B» sinif  
o'quvchisi

Allomalar merosi –  
axloqiy tarbiya asosi.

## IJODKORLAR MAKTABI

*Har sohada bo'lib ilg'or,  
Izlanishdan tolmaymiz.  
Kelib ko'ringiz bir bor,  
Afsuslanib qolmaysiz.*

Bu galgi qahramonlarimiz nigohlaridan o'qiganlarimni qofiyaga solgim keldi. Ular Yunusobod tumanida joylashgan 235-umumta'l'm maktabi o'quvchilaridir.



Yaqinda ijodkor-u, iste'dodli tengdoshlaringiz o'quv dargohida tadbir o'tkazishdi. Kechada bolalar ulug' bobolarimizni yod etishdi. «Millatning buyuklarini yod etib...» mavzusidagi adabiy-musiqiy tadbirda bolajonlar bir-biri-

dan ajoyib obrazlarni yaratishdi. Jumladan, 10-«A» sinf o'quvchisi Muhammadziyo Husniddinov Xisrov obrazida gavdalangan bo'lsa, Shavkat Zokirovning Farhod kabi tog'ni talqon qilgudek shijoati bor ekan. Sabina G'ulomjonova va Gulmira Umrzoqovaning g'azal o'qish qobiliyatiga barcha tan berdi. So'ng sahnaga Iltifot Umarova rahbarligidagi 2-sinf o'quvchilarini chiqib kelishdi. Bu bolajonlar «Non isi» nomli sahna ko'rinishini yig'ilganlarga namoyish etishdi.

Tadbirga tashrif buyurgan faxriy jurnalist Ne'matilla Qayumov ta'kidaganiday, ushbu maskanda faol va ijodkor o'qituvchi-yu o'quvchilar ko'p ekan. Ayniqsa, maktab rahbari Mo'mina Sulaymonova, ona tili o'qituvchilar – Gulbahor Rahimova, Jamila Saidqaliyeva, Mamlakat Otaqulova va Saodat Zoitova o'quvchilarni adabiyot gulshaniga yetaklayotgan bo'lsa, ne ajab! Zero, bolalar qalbidagi ijodkorlik urug'i ana shunday ustozlar e'tiboridan kurtak yozadi.

Sayyora QODIROVA

**Maktab-internatning 5-6-7-sinf o'quvchilari, maktabning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinosasi Bibirobiya Ziyayeva, muassasa tarbiyachisi va kutubxonachisi rahbarligida azim Termiz shahrining diqqatga sazovor joylariga sayohat yushtirdilar.**

## SERMAZMUN SAYOHAT



Dastlab, o'quvchilar Hakim at Termizi zi-yoratgohini aylanishdi. Ma'lumki, bu buyuk vatandoshimiz bizga boy va katta ilmiy meros qoldirgan. U Xuroson va Mavarounnaharda ilk tasavvuf ta'llimotchisi, huquqshunoslik, tabiatshunoslik, tabobat, ilm-u nujum, tilshunoslik va yana boshqo ko'plab sohalarda asarlar yaratgan alloma. Zi-yoratgohda ulug' vatandoshimizning xayrlı ishlari haqida so'zlab berildi. Ajdodlarga munosib

ilm-fan, madaniyatiga qo'shgan hissasi beqiyos, – deydi 5-«A» sinf o'quvchilari Dildora Tursunova hamda uning dugonasi Ilymona Abdurasulova. – Biz shunday yurtda tug'ilganimizdan g'urur-iftixorga to'lamiz. Bunday

sayohatlar yurtimizning turizm salohiyati haqida kengroq ma'lumotlar olishga imkon beradi.

Ushbu maskandagi qadimiylar asori atiqalar, turli davrlarda yashagan odamlarning turmush tarzini aks ettiruvchi buyumlar o'quvchilarda katta taassurot qoldirdi. Shuningdek, markaziy hayvonot bog'ida o'quvchilar yurtimizdagи jonivorlar olami bilan yaqindan tanishtirildi. Bolalar bu yerda turli

hayvonlarni tomosha qilib, olam-olam taassurot olishdi.

**Mashrab ANOROV,  
Surxondaryo viloyati, Denov tumanidagi  
17-DIUMIning yoshlar yetakchisi**

## FAOL SARDOR

**Bugun yurtimiz yoshlariga o'z iste'dodini namoyon etish uchun imkoniyat eshlari keng ochilgan. Quvonarlisi, bu g'amxo 'rliklardan oqilona foydalanayotgan tengdoshlarim talaygina.**

Bizning 23-umumta'l'm maktabimizda ham ana shunday bilimga chanqoq yoshlar juda ko'p. Jumladan, «Bilimlar bellashuvi»ning maktab va hududiy bosqichi g'olib, «Kamalak» bolalar tashkilotining klub sardori Sherzod Haqqulovning ota-onasiga qancha rahmat aysak, shuncha oz. U barcha fanlardan a'lo baholarga o'qish bilan birga, «Kamalak» bolalar tashkiloti faoliyati samaradorligini oshirishga

munosib hissa qo'shmaqda. Tuman va hududlararo bo'lib o'tgan o'quv-seminarlarda faol qatnashib, tashkilot targ'ibotini samarali olib bormoqda. Bu kabi tashabbuskor o'quvchilar tufayli maktabimiz boshlang'ich tashkiloti yanada gullab-yashnashiga ishonamiz.

**To'iqin TOSHEV,  
Buxoro viloyati, Shofirkon  
tumanidagi 23-umumta'l'm  
maktabining yoshlar yetakchisi**



## BUYUK SIYMOLAR

*Yetuk mutafakkir siymolar, olim va davlat arboblari, benazir ijodkorlar – Alisher Navoiy va Zahriddin Muhammad Bobur asarları o'quvchi-yoshlarni ma'nан yetuk inson qilib tarbiyalashda dasturilamal bo'lmoqda.*



Kuni kecha maktabimizning 1-sinf o'quvchilari o'tasida tadbir bo'lib o'tdi. Unda Shahruba Ismoilova, Parvina Pirmatova, Muhammadali Zuhriddinov, Dilbar Rasulova kabi yigit-qizlar faol ishtirot etdi. Bolalar «Navoiy va Bobur g'azallarini kuylaymiz» mavzusida g'azal va ruboilyarni ifodalayti aytdishdi. Bahribayt bellashuvida esa o'quvchilar o'z bilimlarini namoyon etdi.



**Xurshida HALIMOVA,**  
**Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumanidagi 241-umumta'l'm maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi**

**Toshkent shahar, Chilonzor tumanidagi 270-umumta'l'm maktabida nazm va navo kechasi o'tkazildi.**

Maktabning ona tili va adabiyot muallimlari – Sevara Rajabova hamda Nasiba Haydarovaning ilmga chanqoq shogirdlari uchun bu kecha mumtoz adabiyotga bo'lgan hurmat va muhabbatlarning o'ziga xos namoyishi bo'ldi.

Tadbir davomida o'quvchilar Navoiy, Bobur g'azal va ruboilyaridan namunalar o'qishdi. Ishtirokchilar bahrabayt musobaqasida bobolariga munosib voris ekanliklarini isbotlashdi. Adabiy kecha ruhiga mos kuy-ko'shiqlar yangrab, raqslar ijro etildi. 6-sinf o'quvchilari Husan Jo'rayev, Muslima Berdiboyeva, Mubina Abdunabiyeva, Muxlisa G'aniyevalar eng hozirjavob va zukko ishtirokchi degan nomga sazovor bo'lismi.

**Muzaffar AHMEDOV**

Yoshlar tarbiyasiga bugun e'tibor bermasak,  
ertaga kech bo'lishi mumkin.

Shavkat MIRZIYOEV

## АДАВЫОТ ҶАУРАМІ

Ustozlarimiz Xurshida va Shohidaxon Nishonovalar tashabbusi  
bilan tashkil etilgan bayram «Ma'naviyatimiz  
sarchasmalari» deb nomlandi.

Mazkur tadbir chin ma'noda adabiyot bayramiga aylanib ketdi. Unda 5-, 7-«A», 8-«I» sinf o'quvchilar hamda «Oftob» badiiy ijod va adabiyot to'garagi a'zolari faol ishtirot etdi.

Kechada «Shohjahon va Avrangzeb», «Bobur va Xondamir», «Navoiy va bulbul», «Xotamtoy», «Yaxshidan bog' qoladi» nomli bir-biridan ibratlari sahna ko'inishlari namoyish etildi.

Tadbir so'nggida g'azalkonlik musobaqasi o'tkazilib, unda 8-«I» sinf o'quvchisi N.Sayubbayeva 1-, M.G.afurjonova 2-, 7-«A» sinf o'quvchisi H.Isoqjonova 3-o'rinni egalladi. Ma'naviyat kechasida 7-«A» sinf o'quvchilaridan Yu.To'rayev, O.Abdullayev, X.Ismjananova, R.Sadreddinova, M.Abdullayeva, S.Normirzayevalar, 8-«I» sinf o'quvchilaridan Fotima va Zuhra Habibullayevalar eng namunalni o'quvchi sifatida maktab ma'muriyatining esdalik sovg'asi va faxriy yorilq bilan taqdirlandi.

Rahimaxon SADRIDDINOVA,  
Namangan shahridagi 43-umumta'lum maktabining 7-«A» sinf o'quvchisi,  
«Oftob» badiiy ijod va adabiyot to'garagi a'zosi

## OTA-ONANGIZ BILAN O'QING!

Tunov kuni adabiyot fani darsligini izlab, farzandlari maktabga boradigan qo'shnimning eshik qo'ng'irog'ini bosdim. Qo'shnim hagedanga chiqavermadidi. Endi ortimga qaytmoqchi bo'lib turgandim, eshik ochilib, hamsoyam hovliqqancha peshvoz chiqdi. Hol-ahvol so'ragach, maqsadimni aytdim. U esa «bolalarim uya dars tayyorlayapti, o'zingiz kirib so'ray qoling», dedi-da, televizor ko'rayotganiga ishora qilib, shoshgancha boshqa xonaga kirib ketdi.

## QO'SHNI BOLANING HASRATI yoxud yana sharqona tarbiyaga zid seriallar haqida

Men esa asta bolalar xonasiga bosh suqdim. Ichkariga kirganimda, qo'shnimning kichik farzandi uyali telefon o'ynab o'tirganini ko'rib, biroz ajablandim. Yana biri kompyuterdan ko'zini uzmasdi. Oilaning kerjasini esa «darsimni tayorlashga yordam bering», deya opasiga yalinyapti. Shoshib turganim uchun o'zimga kerakli kitobni oldim-da, ortimga qaytdim. Yo'lda ketayotib, ikki-uch kun avval qo'shnimning o'g'lidan baholarini so'raganim yodimga tushdi. O'shanda bolakay oyisi ko'pincha serial tomosha qilib, dars tayorlashiga yordam bermasligidan xafa bo'lgandi...

Bugun yurtimizning aksariyat telekanallari turli saviyasz, milliy mentalitet va urchodatlarimizga zid bo'igan turk, hind hamda Lotin

Amerikasiy mamlakatlari seriallarini kimo'zarga namoyish etmoqda. Ushbu «ijod mahsul»lari ota-onalar, yoshlar, ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlod vakillariga «ma'naviyat darsi»ni o'tayapti, desak yanglishmaymiz. Achinarlisi, ko'pchilik ota-onalar sevimli seriallarini xotirjam ko'rib olish uchun o'z farzandlarining odobi, o'smirlik paytdagi muammoligiga panja orasidan qaramoqda. Afsuski, bu ko'p hollarda jamiyatimizda turli ko'ngilsizliklarning paydo bo'lishiga sabab bo'layotir.

O'zingiz o'ylab ko'ring, ana shu seriallar va ularning ongimizga salbiy ta'siri sabab, oilamiz, yaqinlarimiz hayotidagi muammolarga, yon-atrofimizdagи voqeа-hodisalarga beparvo, loqayd

nazari bilan qarashga odatlanib qolmadikman? Balki bunga tarbiyada ziyraklikni unutib qo'yayotganimiz, dilbandlarimizga yetarli vaqt ajrata olmayotganimiz, ularga kerakli mehrni bera olmayotganimiz sababdil?!

Zuhra UMAROVA, Toshkent pedagogika kollejining pedagogika va psixologiya kafedrasini mudiri:



– Ba'zan o'quvchilarning ayrim saviyasiz klip va serialarning mazmun-mohiyatini to'g'ri anglamay, ulardagи qahramonlarning kiyinishi, soch turmagiga ko'r-ko'rona taqlid qilishi, chet el san'atkorlarining behayo qiliqlari-yu, yurish-turishlarini o'zlaricha zamonaviyilik, asl madaniyat deb tushunishiga guvoh bo'lamiz. Shunda ularga o'zligimizdan uzoqlashmasliklarni, ayniqsa, qizlar iboli, hayoli bo'lishi kerakligini tushuntiramiz.

Aytish kerakki, badiiy jihatdan sayoz bo'lgan uzundan-uzoq seriallar, kinofilm va kiplamli tomosha qilish tomoshabin ongingin o'tmaslashishiga xizmat qiladi, xolos. Achinarlisi, bugun ko'plab yoshlar

Aziz o'quvchi, ushbu mavzu yuzasidan sizda qanday fikr-mulohazalar bor?  
Bu haqida, albatta, bizga yozib yuboring.



Toshkent shahar, Yashnobod tumanidagi 153-umumta'lum maktabida «Navoiyxonlik» va «Boburxonlik» oyligi qizg'in o'tmoqda.

ana shu «badiiy mahsulot»lardagi qahramonlarga taqild qilib, bemehr, qahri qattiq, xudbin shaxs bo'lib ulg'aymoqda. Shuning uchun ota-onalarga iltimos qilib aytamanki, farzandlarining tarbiyasiga aslo bee'tibor bo'lmang! Ajdodlarimizdan qolgan boy ma'naviy merojni, bunyodkorlik g'oyalari va ezgu ta'limotlarini yoshlar ongiga singdirishda ularga o'rnak bo'ling!

Kamola KARIMJONOVA,  
Toshkent viloyati, Qibray tumanidagi 14-umumta'lum maktabida 6-sinf o'quvchisi:

– Ota-onamiz biz farzandlarning dars tayorlashimizni doim nazorat qildi. Shuning uchun maktabda a'lo baholarga o'qymiz. Televizor ko'rishga bo'sh vaqtimiz deyarli yo'q. Qanday ko'rsatuv, film yoki multfilmlar ko'rayotganimiz bilan onam qiziqib turadi. Ba'zi tengdoshlarimiga o'xshab, kattalar oldida serial tomosha qilmaymiz. Ota-onamiz bolalik chog'larida ko'p kitob o'qigan ekan. Shu sababli bizga ham doim kitob mutolaa qilish kerakligini uqtirishadi. Opalaring ingliz tili, matematika, ona tili fanlarini puxta o'rganyapti. Umak esa futbol to'garagiga qatnaydi. Biz ham ota-onamizga o'xshab, ko'p kitob o'qisak, kelajakda yaxshi inson bo'lib kamolga yetamiz.

Nodira NAZAROVA



Kim o'z yurtini sevmasa,  
U hech nimani seva olmaydi.  
J.BAYRON

# BIZNING ROZIYA

Marg'ilon shahridagi 8-bolalar musiqa va san'ati  
mabtabining 2-sinf o'quvchisi Roziya Komiljonova 2016-yil  
Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida o'tkazilgan «Mug'om» xalqaro bolalar  
festivalida qatnashib, an'anaviy xonandalik yo'nalihi bo'yicha 1-o'rinni  
egallab, diplom bilan taqdirlangani haqida «Tong yulduzi» gazetasida xabar  
bergan edi.

Ushbu iste'dod egasi 2017-yil mart oyida Rossiya Federatsiyasining Qozon shahrida  
o'tkazilgan «Jonli chashma» xalqaro ko'rik-tanlovida an'anaviy xonandalik yo'nalihi bo'yicha  
ishtirot etib, oliy sovrin – «Gran-Pri»ni qo'lga kiritdi hamda Amerika Qo'shma Shtatlarining  
nufuzli «Carnegie Hall» konserst saroyida shu yil iyun oyida o'tkaziladigan tadbiriga yo'llanma  
oldi. Uning ijo mahorati muxlis-u mutaxassislar olqishiga sazovor bo'ldi.

Kuni kecha mabtabda o'tkazilgan Roziya Komiljonovaning ijodiy konsertida ta'lim  
maskani o'qituvchilar va o'quvchilar jamoasi, ota-onalar yosh iste'dodni olqishlab,  
unga yuksak parvozlar tilashdi.

Muhammadjon MAHMUDOV,  
Marg'ilon shahri

## USTOZNI XAFA QILMAYMIZ

Sardor ismli sinfdoshimiz oxirgi paytlar ko'p sho'xlik qilib,  
ustozimiz Gulgona opani ranjitudigan odat chiqardi.

Maktab oshxonasidagi eshikni  
sindirgani uchun sinf rahbarimizing  
oyliklaridan ushlab qolindi. Aksiga  
olib, Gulnora opaning yaqinlari ancha  
uzoqda, o'zları esa kichik qizlari bilan  
yolg'iz turadi. Sardorning sho'xliklari  
kundan-kunga ortib, o'zidan kichik  
sinfidagi bolani unga yo'l bermaganlikda  
ayblab, uribdi. Bu ham yetmagandek,  
agar sinfdoshimizga har kuni pul  
berib turmasa, undan ham battarrog  
kaltaklashini aytib, qo'rqtibdi.

Ko'pgina ota-onalar ustozimizga  
undan shikoyat qilishdi. Sardorning  
ota-onasi esa direktorimizga o'g'lini  
sinfda yakkalab qo'yilgani haqida  
aytib, yana Gulnora opani xafa qildi.  
Bu hol qayta takrorlansa, ishdan  
bo'shatilishi haqida ogohlantirish oldi.

Bundan ranjigan ustoz qattiq betob  
bo'lib qoldi. Kunlar ancha sovuq, qor  
qattiq yog'gan payt edi. Biz sinfdoshlar  
bilan kelishib, ularning holdidan xabar  
olishga qaror qildik. Uylariga borgach,  
ustozning ahvolini ko'rib, qattiq xafa  
bo'ldik. Darrov qizlar uy yig'ishtirishga  
tushdik. Bahrom, Anvar do'konga  
chiqib, yegulik olib keldi. So'ng issiq  
ovqat tayyorladik. Ustoz mehribon-  
chiligidini ko'rib, quvonganidan  
yig'lab yubordi. Endi ularni deyarli  
har kuni ko'rishga boradigan bo'ldik.  
Sardor ham sinfdan ajralib qolganligini  
sezib, qilmishidan pushaymon yedi.  
Shuning uchun mabtab raqamini  
yozishni istadmadi. Endi ustozimizni  
hech kimga xafa qildirib qo'yamaymiz.  
Odina SAHOBIDDIN qizi

O'zbekiston Respublikasi  
Vazirlar Mahkamasining  
«Umumiyo'rta ta'lif  
muassasalarining 10-11-sinf  
o'quvchilariga kasbiy ta'lif  
berishga ixtisoslashtirilgan  
o'quv ishlab chiqarish  
majmualarini tashkil  
etish chora-tadbirlari  
to'g'risida»gi  
Qarori ijrosi  
yuzasidan  
Toshkent  
Matbaa-noshirlik  
kasb-hunar  
kollejida tanlov  
bo'lib o'tdi.



Bellashuvda Shay-  
hontohur tumanida-  
gi 13-, 40-, 59-, 254-,  
324-umumta'lum maktablari-  
ning 10-sinf qizlari uch guruhga  
bo'linib, do'ppi tikish, savat  
to'qish, mohir qo'llar, rasm chiz-  
zish shartlari bo'yicha o'zaro  
bellashdi.

«Hunarli kishi xor bo'lmas»,  
deganlaridek, kechada qat-  
nashgan qizlarning o'z qo'llari  
bilan yaratgan ishlarini ko'rib, ular-  
ga rosa havasimiz keldi. Ayniqsa,  
254-umumta'lum maktabining 10-  
«A» sinf o'quvchilarini – Durdona  
Toshxo'jayeva, Kamola Abdazovaning  
qo'l mehnatlari taqsinga loyiq.

– Men 7-sinfdan buyon to'quchili-  
likka qiziqaman. Onajonimning  
sharp-qo'lqopchalar to'qiganini ko'rib,  
«qachon men ham ulardek bo'la-  
man», derdim. Onama qiziqishimni  
aytganimda, menga bu hunarning  
sirlarini puxta o'rgatgan. Hozir o'zim  
bolalar kiyimlari, kattalar uchun  
nimcha, jemferlarni mustaqil to'qiy  
olaman. Bu hunar orqali oz bo'lسا-  
da, oilamizga nafim tegayotga-  
nidan xursandman, – deydi Kamola

Abdazova.

– Bo'sh vaqtimni bekor o'tkazmas-  
lik uchun yaroqsiz buyumlardan  
ro'zg'or uchun kerakli buyumlar,  
savat, qutichalar yasashga qiziqaman.  
Eng muhim, vaqtimni samarali  
o'tkazaman. Menga shunday foydali  
hunarni o'rgatgani uchun mehnat  
fani ustozimiz Shahnoza Tohirovara  
o'z minnatdorchilikimni bildiramani,  
– deydi Durdona Toshxo'jayeva.

Vaqtini behuda o'tkazayotgan  
qizlar qayoqda-yu, to'quvchilik,  
tikuvchilik orqali chiroyli ko'yaklar  
tikayotgan qizlar qayoqda?! Tanlov  
esa, albatta, o'zingizdan.

Nigora ABDUNAZAROVA

## 2018-yil - Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili

### YILNING ENG YOSH IXTIROCHISI

Siz biror-bir buyumni ixtiro qilishga hech urinib ko'rganmisiz? Biroz mushkul-u lekin qiziqarli  
mash'ulot deysizmi? Albatta, bunga alohida uquv va qobiliyat darkor.



Tengdoshingiz Ikromjon  
Mo'ydinjonov yuksak salohiyati  
bilan boshqa tengdoshlaridan  
ajralib turadi. Farg'ona tuman «Barkamol avlod»  
bolalar markazi «Kompyuter servis xizmati»  
to'garagi a'zosii 2017-yil «Yilning eng yosh  
ixtirochisi» tanloving Respublika saralash bos-  
qichida «Yosh konstruktur va ixtirochi» yo'nalihi  
bo'yicha «Quyosh energiyasi yordamida suv

isitish qurilmasi» modeli loyihasi bilan qatnashib,  
1-o'rinni egalladi. Tumandagi 1-IDUMIning 9-«A»  
sinfida tahsil olayotgan Ikromjon hozirda ustoz  
Nafisaxon O'rınboyevadan texnik ijodkorlik sirlarini o'rganmoqda.

U tuman, viloyat hamda respublika miyosida  
tashkii etilgan turli tanlov va festivalarning sovrin-  
dori hisoblanadi. Jumladan, 2016–2017-o'quv  
yilida viloyat «Barkamol avlod» bolalar markazida

o'tkazilgan «Texnik ijodiyot» festival-tanlovingin  
viloyat bosqichida «Radiotexnika va elektro-  
nika» yo'naliishida «Neft, gaz konlarini qidirish  
ko'chma laboratoriysi» loyihasi bilan ishtirot etib,  
1-o'rinni egalladi hamda Respublika bosqichida  
«Eng noan'anaviy loyiha muallifi» nominatsiyasi  
go'libi bo'ldi.

Ikromjonning ixtirolari kelgusida insonlar og'irini  
yengil qilsa, ajabmas.



### AZIZBEK ORZUSIDAGI ROBOTNI YARATDI

Azizbekning ham xuddi Ikromjon kabi yutuqlari talaygina. U Farg'ona viloyatidagi 29-umumta'lum  
maktabining 5-sinfida tahsil olmoqda. Darsdan bo'sh vaqtlarida Azizbekni «Barkamol avlod» bolalar markazida  
tashkil etilgan «Yosh konstruktur va ixtirochi» to'garagi rahbari Muhabbat Dosimovaning yonidan topasiz.

Buni qarangki, u ustoz yordamida «O'zbekiston» nomli  
suvsda harakatlanuvchi kema, quyosh nuridan quvvat oluvchi «Svetofor»,  
WI-FI qurilmasi bilan boshqariladigan «Kuzatuv mashina»larini yaratgan.  
Bu ixtirolari bilan 2017–2018-o'quv yilida o'tkazilgan «Balolar texnik  
ijodkorligi» festival-tanloving tuman, viloyat, respublika bosqichlarida  
I darajali diplom bilan taqdirlandi. O'quvchi-yoshlar o'ttasida o'tkazilgan  
«Orzumdag robot» respublika sirtqi tanloving tuman, viloyat bosqichlarida  
1-o'rinni egallab, Respublika sirtqi tanlovida qatnashish huquqini qo'lg'a

kirtdi. Ko'pchilik o'quvchilar Azizbekka havas bilan qaraydi. U maktabda  
barcha tengdoshlariga o'mak.

Yillar o'tib, iqtidorli o'quvchining tengdoshlari WI-FI orgali bosh-  
qariladigan mashina yoxud quyosh batareyalari yordamida ishlayot-  
gan svetoformi ko'rganda, bu Azizbekning ixtirosi deb faxrlanishlari  
qanchalik quvonaril!

Ozoda TURSUNBOYEVA

Erta tongdanoq Azizaxonning jajji yuragi gupullab urdi.  
Hayajondan o'zini qo'yarga joy topa olmasdi. Chunki,  
Tahir bobosi bugun 80 yoshni qarshi oldi. Axiyri, uning  
dilidagilari qog'ozga ko'chdi...

## BOBOSIGA SOVG'A TAYYORLAGAN AZIZA

*Bobom ulug' yoshida,  
Katta ishlar boshida.  
Shogirdlari bahodir,  
Ter to'kamiz qoshida.*

*Bobom asli pahlavon,  
Sherdek oshar qir, dovon.  
Ulargin tilagim,  
Omon bo'lsinlar, omon.*

«Bolam, kasbing ulug'la,  
Yaxshi ishni qutlug'la».  
Silab asta boshimiz,  
Dedi: «Yurting qo'rila».

U bu she'ri kechki vaqt  
oilaviy tantanada o'qib berishni niyat qildi. Qizaloqning  
ilk she'riy mashqi bobosiga  
bag'ishlangani bejiz emas.  
Chunki u kabi yigirma to'rt  
nabira-yu, o'n ikkita evaran  
ning hayotida bu ulug' insonning o'rnii katta. Aziza o'z she'rida bobosini bejizga  
pahlavon, deb atamadi. Bili-  
shimizcha, Tahir boba Jizzax  
va Mirzacho'ldagi yangi  
yerlarni o'zlashtirish boshqar-  
masi ixtiyoridagi ta'minot

bo'limini boshqargan ekan.  
Bugun esa keksalik gashtini  
surib, Mehruba, Mo'tabar  
kabi nabiralarining bo'sh  
vaqtlarini unumli o'tishiga  
ham aylandi.

Toshkent viloyati, Bo'ston-  
liq tumanidagi 17-umum-  
ta'lum mabtabining 3-sinfida  
tahsil olayotgan Azizaxon  
Tohirova hamisha bobosiga  
munosib bo'lish harakatida.  
A'llochi qizaloq sira dars-  
lardan qolmaydi. Ustozi

Shahlo Idirova qo'l ostida  
bilim olishdan tolmaydi.  
Tirishqoqligi sabab,  
bizning qahramonimizga  
ham aylandi.

Ha, aytgancha, qizaloqning  
yuqoridaq she'ri  
bobosiga eng katta sovg'a  
bo'libdi. To'g'ri-da, boba  
uchun jajji nabirasining  
dilidagi tilaklarini uning  
shirin tilidan eshitishdan  
ortiq sovg'a bo'limasa  
kerak.

QIZLARXON



### Lesson 7

## «TO BE» YORDAMCHI FE'LILING QO'LLASH QOIDALARI

«To be» yordamchi fe'li o'zbek tiliga «bo'limoq» deb tarjima qilinib, uni  
quyidagi hollarda qo'llash mumkin.

Predmetning kim yoki nima ekanligini ko'rsatish uchun.	This <b>IS</b> a book. Her name <b>IS</b> Madina.
Kishilarning millati va yoshini ifoda-lashda.	I <b>AM</b> 24 years old. He <b>IS</b> Uzbek.
Shaxs yoki predmetlarning xarakteri va xususiyatlarini ko'rsatish uchun.	My parents <b>ARE</b> very kind. Today <b>IS</b> cold.
Predmetning qayerda ekanligini ko'rsatish uchun.	The book <b>IS</b> on the table.
Shaxs yoki predmetning holatini bildirganda.	I <b>AM</b> hungry.

## «TO BE» YORDAMCHI FE'LI BILAN BIRGA QO'LLANILADIGAN IBORALAR

1. To be afraid – Qo'rqmoq
2. To be tired – Charchamoq
3. To be well – Sog' bo'limoq
4. To be interested in – Qiziqmoq



5. To be glad – Xursand bo'limoq
6. To be busy – Band bo'limoq
7. To be angry – Jahli chiqmoq
8. To be late – Kechikmoq
9. To be out – Tashqarida bo'limoq
10. To be away – Uzoqda bo'limoq

### Exercise 1. Check the mistakes.

1. Lions **is** wild animals – Lions **are** wild animals.
2. Dildora is a tall girl –
3. Our English teachers **is** in the school at the moment –
4. I am sad today –
5. My pencil **is** long –
6. My uncle **are** a policeman –
7. The pupils **are** in the classroom –
8. The pencil **is** in the bag –



Painter: Yaqubbek HABIBEKOV

## Learning idioms

Read the idioms and full fill the gaps

Idiom	Meaning
Chow down	Eat something.
Beating around the bush	Avoiding a topic.
Break a leg	Good luck.
Crack someone up	Make them laugh.
Cut to the chase	Leave out the details.
Hit the sack	Go to bed.




1. You don't have to tell me the whole story. Just cut to the chase!
2. I'm hungry I think it is time for lunch! Let's go ...
3. I keen on that comedian film! I always ...
4. I'm tired. I think I'll ...
5. Are you going to the examination? ...
6. I know he wants to tell me something, but he keeps ... I have no idea what he wants.

Dinora ABDULLAJONOVA

## Matching

Now children, let's match the words with the pictures

Snowman, snowboard, snowflake,  
snowball, snow-white, snowdrop



Dilnura BAHODIROVA,

the pupil of school-internat №1st in Qo'shko'pir district, Kharezm region

Your teacher Ma'mura G'ULOMOVA

19-fevral 2018

## Odobli farzand - ko'kdagi yulduz.

Bahrom AKBAROV

## YURAGIMDA - TUMORIMSA

Vatan so'zi  
Qalbga g'urur,  
Shon berar.  
Ona esa  
Murg'ak dilga \* \* \*  
Jon berar.  
Shu sababli  
Illi so'z ham  
Suyukdir.  
Ona - Vatan,  
U hamisha  
Buyukdir!

Vatan - shonim,  
Vatan - jonom.  
G'ururim,  
Iftixorimsan.  
Quyosh yanglig'  
Tafting qaynoq.  
Dilda mangu  
Bahirimsan.  
Baxtim menin,  
Quvonchim,  
Qalbda borimsan.  
Ardoqlayman,  
Ham asrayman.  
Yuragimda -  
Tumorimsan!



## QALAMNING ALAMI

Tutoqib dedi qalam,  
Menga qilmoqda alam.  
Bir kun imtihon bo'lib,  
Ruchka yozdi to'dirib.  
Tepadan pastga tushdi,  
Yaxshilik nomin quchdi.  
Shundan uning ko'ngli to'q,  
Menga-chi, bir maqtov yo'q.  
Olqishlar bo'lар unga,  
Qanday chidayin bunga?!

Biri oq, biri qizil, uchinchisi  
sariq bo'lgan opa-singil ka-  
palaklar bor edi. Ular quyosh  
nurida guldan-gulga qo'nib,  
uchib yurishar ekan. Bir kuni  
Quyosh ularning ahilligini si-  
namoqchi bo'libdi:

## OPA-SINGIL (Ertak)



## KAPALAKLAR

Birdan yomg'ir yog'ib, ka-  
palaklar berkinish uchun pana  
joy qidira boshlabdi. Qanotlari  
ho'l bo'lmasligi uchun qizil va  
sariq lola oldiga kelib:

- O'rtoqjon, bizni yaproqlaring  
orasiga berkitib, yomg'irdan  
asra, - deb iltimos qilishibdi.  
Lola esa:

- Mayli, qizil va sariq ka-  
palaklarni berkitaman, lekin  
oq rang menga o'xshamagan  
sababli unga yordam berol-  
mayman, - debdi.

Kapalaklar esa singlisi yolg'iz  
qolishiga rozi bo'lambadi.

Yomg'ir kuchaygandan  
kuchayibdi. Kapalaklarning  
nozik qanotlari shalabbo bo'libdi.  
Ular oq gulning yoniga ke-  
lib, yomg'irdan pana qilishini  
so'rashibdi. U esa: «Faqtat  
oq kapalakning berkitaman,  
chunki u mening  
rangimga o'xshay-  
di, qizil va  
sariq kapalak-  
lar yomg'irda  
qolaversin», -  
debedi.

Shunda kich-  
kina oq kapalak  
opalar panada  
bo'limasa u ham  
berkinmasligini  
ayitibdi.

Shunday qilib,  
kapalaklar  
yomg'irda  
ho'l bo'lgan  
qanotlarini

silkitib uchib ketibdi.

Bulutning orqasidan hamma  
voqeani kuzatib turgan Quyosh  
uch opa-singilning birdamligi va  
ahilligiga qoyil qolibdi. Ularni  
tillarang nurlari bilan ilitib, ipak  
qanotlariga yanayam jilo baxsh  
etibdi. Kapalaklar esa guldan  
gulga qo'nib sayr qilishda da-  
vom etishibdi.

**Yulduz TO'XTAMURODOVA,**  
**Qashqadaryo viloyati, Koson**  
**tumanidagi 9-umumta'l'm**  
**maktabining 7-«B» sind**  
**o'quvchisi**

## KITOB YAQIN DO'STIMDIR

Oldim kitob qo'limga,  
Ziyo tutdim yo'limga.  
Shodlik to'ldi ko'nglimga,  
Kitob yaqin do'stimdir.

Ezgulikka yo'llaydi,  
Har qadama qo'llaydi.  
G'anda boshim silaydi,  
Kitob yaqin do'stimdir.

Har varag'i nur sochar,  
Qalbimda dunyo ochar.  
O'jisam mehrim oshar,  
Kitob yaqin do'stimdir.

**Xurshidabonu SULTONOVA,**  
**Andijon shahridagi**  
**37-umumta'l'm**  
**maktabining**  
**6-sinf o'quvchisi**

## MENING SINGLIM OSIYO

Bir singlim bor Osiyo,  
Gapi bisyor uni-yo.  
Undan gap so'rab ko'ring,  
Bijirlab ketar, biling.

Mening singlim Osiyo,  
Tili shirin Osiyo.  
Bidir-bidir qiladi,  
Qovog'ini soladi.

Qo'g'irchog'in ovutib,  
Alla-allasin ayitib.  
Hammamizni lol etar,  
Ko'nglimizni shod etar.

**Dilnur ERKINOVA,**  
**Qashqadaryo viloyati, Kasbi**  
**tumanidagi 11-DIU**  
**Mning**  
**3-sinf o'quvchisi**



**Tong yulduzi**



## ARG'IMCHOQDA UCHARDIM

Bolalikni opichlab,  
Arg'imchoqda uchardim.  
Osmondag'i eng baland,  
Bulutlarni quchardim.

Qushlar ko'rib parvozim,  
Menga hayron boqardi.  
Balandlarga sayr etish,  
Menga juda yoqardi.

Uzun qilib bog'langan,  
Arg'imchog'im ipakdan.  
Olislarga uchardim,  
Rosa edi mustahkam.

Men dam olmay uchardim,  
Zavqim ko'kka sochardim.  
Shunchalik ko'p uchsam ham,  
Menga edi juda kam.

**Mahliyo FAYZULLAYEVA,**  
**Surxondaryo viloyati, Sariosiyo**  
**tumanidagi 2-umumta'l'm**  
**maktabining 8-«B» sind o'quvchisi**

## «NABIRAMGA MAKTABULAR» TURKUMIDAN

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda)

Aziz nabiram, bir kuni sen maktabdan  
juda tushkun holda kelding. Buni men  
darrovida sezdim. Mavridi bilan sababini  
asta so'radam. Sen partadoshingdan shi-  
koyat qilding. Shunday shikoyat qildingki...  
Agarda buni dadang yoki onang eshitib  
qolsa bormi, darrovida maktabga borib,  
seni boshqasi bilan almashtirib o'tqazib  
qo'yardi. Yaxshiyam ular bexbar qolish-  
di. Yuragingdagini menga yorib to'g'ri  
qilding.

Bilasanmi bolam,  
avallo, sen o'tirgan  
o'sha partani oddiy parta emas, bamisol  
qaqiq deb bil. Ha, shunday! O'sha yomon  
ko'rgan o'tog'ing bilan bitta qayiqda suzib  
boryapsizlar. Ilm yo'lida birga safarga  
chiqqansizlar. Odatda, safardoshni yo'lida  
almashtirib bo'lmaydi.

Hozir sengir bira rivoyat aytil beraman:  
Ikki kishi safarga chiqishibdi. Yo'llari cho'l-u  
biyobonlardan iborat ekan. Aslida, ilm  
yo'li ham shunaqa. Ularning bittasi juda  
qo'rs, qo'pol ekan. Sening partadoshing-  
ga o'xshab shergining jig'iga tegaverar  
ekan. Oq desa - qora, qora desa - oq  
der ekan. Uni hecham insofga chaqirib  
bo'lmasmish. U yomonning dastidan birov-  
ga arz qilay desa, eshitadigan odamning  
o'zi yo'q. To'rt tomon qum va sahro. Oxiri  
hamrohidan jabr ko'rib kelayotgan sheri-  
gigi to'lib, qumga:

«E, Xudo meni bu falonchidan qutqar,  
qutulish uchun, hatto, o'limimga ham ro-  
ziman, jonimni olib qo'yaqol», deb yozib  
ko'nglini bo'shatgan bo'pti.

Bu yozuvni o'qib, sheri-  
gigi kulib qo'yaqolibi-  
di. Yo'lda davom etib bir qir oshgan ekanlar,  
oldilaridan katta daryo-yu azimi chiqibdi.  
Yomon sherik shartta o'zini daryoga tash-  
lab, narig'i qirg'oqqa suzib ketibdi. Suvdan  
chiqib qarasa, sheri-  
gigi daryo bo'yida o't-  
gan mish. «Ha?» debdi. «Suzishni bilmay-

**Erkin MALIK,**  
**O'zbekiston Respublikasida**  
**xizmat ko'rsatgan jurnalist**



## SAFARDAGI YO'LOVCHILAR

man», debdi unisi.  
Hozirgina menden qutulish uchun o'li-  
mingga rozi bo'lib  
turban eding-u, so'zingda tur-da, nomard.  
Tashla o'zingni daryoga, o'lasan-ketasan,  
menden qutulasan, debdi bunisi.

Bu gaplar shergining oriyatiga tegibdi.  
Bu dashnomlardan ko'ra o'lganim yaxshi  
debedi-yu, ko'zini chirt yumib, o'zini suvgi  
otibdi. Bir mahal qarasa, berigi qirg'oqda  
yotganmish.

- Men kim qutqardi? - hayron bo'libdi u.  
- Men qutqardim.

U o'midan turib, daryo bo'yidagi xar-  
sangga, o'zini qutqargan safardoshining  
nomini o'yib yoza boshlabdi.

- O'zingni qiyab nima qilsasan, daryoning  
narigi yog'ida qumga yozgan eding, bu  
yerda ham qumga yozib qo'ya qol, ana  
qum, - debdi yomon hamrohi.

- Yo'q, - debdi bunisi, - u yoqda yoz-  
ganimni shamol o'chirib ketdi. Sen qumga  
yozadigan ish qilmading. Toshga o'yib  
yozadigan ish qilding, noming dunyo  
turguncha tursin.

Ana shunaqa, bolajonim. Sen ilm sa-  
faridagi partadoshingga yaxshi gapiraver,  
achchiq so'zlariga sabr qilaver. Zora,  
rivoyatdagidek eng yaqin qadrondingga,  
haloskoringga aylanib qolsa, nima deding,  
toyochg'im?

(Davomi bor)



## BESH O'G'LON MUVAFFAQIYATI

Buxoro viloyati, Romitan tumanidagi 42-sonli futbolga ixtisoslashtirilgan sport maktab-internati o'quvchilari viloyat birinchiligidagi faxrli o'rnlarni egalladi.



Jumladan, sportning o'zbek milliy kurashi turi bo'yicha bahsarda Ramziddin Xayriddinov 1-o'rini, Mansur Oripov 2-o'rinni qo'lga kiritdi. Muhammadali Tillayev, Homid Rahmonov hamda Azamat Rabbieva 3-o'ringa munosib topildi.

## MUHAMMADJON – BIRINCHI

Muhammadjon Ahmadov Surxondaryo viloyati, Denov tumanidagi 9-umumta'l'm maktabining 4-«A» sinfiga a'lo baholarga o'qiydi. Darsdan bo'sh vaqtlarida tumandagi sport maktabiga qatnaydi. U bu yerda karate va qo'l jangi sport turi bilan shug'ullanadi.

Shu yilning 13-15-yanvar kunlari poytaxtda respublika sport makkabari tarbiyalanuvchilar o'tasida qo'l jangi va karate bo'yicha musobaqa bo'lib o'tdi. Unda Muhammadjon ham ishtirok etib, tengdoshlari orasida 1-o'rinni qo'lga kiritdi.

– Ustozim Otabel Nazarovning talabchaliги bois, ushbu turnirda faxrli o'rinni egalladim.

Buning uchun ulardan minnatdorman, – deydi yosh sportchi.

Kelgusida Muhammadjonga xalqaro maydonlarda ham ulkan yutuqlar hamroh bo'lismiga tilakdoshmiz.

O'z muxbirimiz



## G'ALABA SARI ILK QADAM

Kuni kecha poytaxtimizning «Universal» sport majmuasida taekvando bo'yicha yoshlar o'tasida musobaqa bo'lib o'tdi.

Unda yosh sportchilar g'oliblik uchun o'zaro bahs olib borishdi. Sport bilan shug'ullana boshlaganiga hali unchalik ko'p vaqt bo'lmagan bo'lsa-da, aka-uka Ashuraliyevlari ham turnirda yaxshi natija ko'rsata olishdi. Anvar va Akbar poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 246-umumta'l'm maktabida tahlil olishadi. Darsdan keyin shu tumanidagi 12-umumta'l'm maktabida faoliyat yuritayotgan taekvando to'garagiga qatnaydi. Musobaqada Anvar va Akbar faxrli o'rnlarni egalladi.

– Bu shogirdlarim yosh bo'lishiqa qaramay, mashg'ulotlarga muntazam qatnab, taekvando usullarini qunt bilan o'rganishmoqda. Kelajakda ulardan jahon championlari chiqishiiga ishonaman, – deydi murabbiy Doniyor Salamov.

Biz ularga yuksak parvozlar tilaymiz.



Nigora JO'RAYEVA

Sog'lik - boylikdan a'lo.



## ORZIQIB KUTILGAN BAYRAM

Joriy yil 9-fevral kuni Janubiy Koreyaning Pyeongchang shahrida to'rt yillikning eng muhim musobaqasi – XXIII qishki Olimpiya o'yinlari start olganidan yaxshi xabardorsiz.

Aytish kerakki, ushbu nufuzli sport anjumaniga koreyslar juda katta tayyorgarlik ko'rdi. Ko'plab muhtasham va zamonaviy sport inshootlari, Olimpiya qishlog'i, mehmonxonalar, dam olish va ko'ngilochar maskanlar qad rostladi. Bu qilingan sa'y-harakatlarni Xalqaro Olimpiya Qo'mitasiga mutasaddilar, keng sport jamoatchiliqi vakillari, sportchilar va muxlislar yuqori baholadi. Bu galgi qishki Olimpiadaning talismani – Suxoran (Soohorang) laqabli oq yo'llbarschadir.

Musobaqalarning ochilish marosimi ham dunyo aholisi diqqat markazida bo'ldi. Teatrlashtirilgan betakror tomoshalarni milliardlab sport muxlislari to'g'ridan to'g'ri, minglab muxlislar esa bevosita stadiyonдан turib tomosha qilishdi. Mazkur sport bayramining yana bir e'tiborli jihat shuki, unda bir necha yillardan buyon urush ostonasida turgan ikki mamlakat, bir millat – Janubiy va Shimoliy Koreya davlatlari bir bayroq ostida belashuvlarda ishtirok etmoqda. Shundan bilsak bo'ladiki, bejizga sport tinchlik, do'stlik, birdamlik ramzi, deb atalmaydi. Qolaversa, doping mojarolariga aralashib qolgan rossiyalik atletlar Olimpiya bayrog'i ostida bahslarga kirishgan.

Quvonlari, ushbu nufuzli sport bayramida o'zbekistonlik atletlar ham ishtirok etmoqda. Jumladan, Olimpiya o'yinlarida tog' chang'isi bo'yicha mahoratlari sportchimiz Komiljon To'xtayev ona Vatanimiz sharafini himoya qilsa, Misha Ge figurali uchish bahslerida o'z omadini sinovdan o'tkazadi.

Bugunga qadar, ko'plab sport turlari bo'yicha g'olib va sovrindorlar aniqlanib, medallar o'z egalalariga topshirildi. Germaniya, Italiya, Niderlandiya, Fransiya, Norvegiya, Slovakiya, AQSH, Shvetsiya, Chexiya, Janubiy Koreya, Yaponiya kabi davlat sportchilari bir necha medallarni qo'lga kiritib ulgurishdi.

Bellashuvlar 25-fevralga qadar davom etadi.

Sa'dullo TURSINOV

Feruza JALILOVA.

Qadrli o'quvchilar, bu nom siz-larga yaxshi tanish. Feruza opaning muallifligidagi ertak va hikoyalarni boshlang'ich sinflarning darsliklari dan o'qigan bo'sangiz, ajabmas. Bu ijodkor opangiz sevimli gazetangiz «Tong yulduzi»da oz emas, ko'p emas 35 yil faoliyat yurit-gan.

# TOPISHMOQNI OPGAN OPALOQ

Shu yillar davomida ko'plab dolzARB

mavzudagi maqlolari, yangi-yangi loyihalari, «Kunlardan bir kun...», «Quvnoq tanaffus», «Onajonim — tabiat», «Kim ko'p kitob o'qiydi?», «Bizning to'garak» kabi rukn va sahifalari bilan gazetaning

mazmun-mundarijasini boyitishga hissa qo'shgan.

Dastlab, ijodini kichik-kichik xabarlar, she'riy mashqlar yozishdan boshlagan ijodkor opangiz keyinchalik bolalar va o'smirlar hayoti, ularning qiziqish va intilishlari, mashg'ulotlari, muammolariga oid ko'plab lavhalar, tahliliy maqlolalar muallifiga

aylandi. Kichkintoylar hayotiga oid she'va hikoyalor qoraladi. Uning dolzARB mavzudagi maqlolari, ijod namunalari «Tong yulduzi» sahifalaridagina emas, «Gulxan», «G'uncha» kabi bolalar nashrlarida ham chop etila boshladi. Keyinchalik «Bolajon» («Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi) deb nomlangan she'riy to'plami, hikoyalardan jamlangan «Mehr daraxti» («O'zbekiston» NMIU) nomli kitobi o'quvchilar qo'liga yetib bordi.

Ayni paytda F. Jalilovaning she'riy topishmoqlaridan jamlangan «O'ylab boq, topishmoq» nomli kitobi «O'zbekiston» NMIUda nashrga tayyorlanmoqda.

Quyida ana shu to'plamga kiritilgan topishmoqlardan e'tiboringizga havola qilyapmiz. O'qing, topqirlik-u zukkoligingizni sinab ko'ring.

**O**yog'i yo'q — sakraydi,  
Qanoti yo'q — uchadi.  
Yerga ursang osmonga,  
Sapchib, ko'kni quchadi.



**A**'lochiga chin do'st u,  
Yelksida yuradi.  
Ikkichiga «darvoza»,  
To'pni paylab turadi.




**T**inim bilmay yursa-da,  
Olislab ketolmaydi.  
Tun-u kun «chiq-chiq-chiq»lab,  
Manzilga yetolmaydi.



**Q**arang, oppoq bir quti,  
Ko'rinxaydi teshigi.  
Ichiga qaray desam,  
Yo'q tuynugi, eshigi.



**Q**o'ng'iroqdek ovozi,  
Musiqali sozi bor.  
Qulog'ingga tutmasang,  
Jaranglayverar takror.




**O**lovda tursa uzoq,  
Idishidan toshadi.  
Oyog'i yo'q, qo'li yo'q,  
Bilmam, qayga shoshadi?




**I**KKI ko'z-u, bir tana,  
Bajaridan muhim ish.  
Qo'lidan kelgani shu:  
Qirqish, kesish, ayirish...



**G**'ir-g'ir esgan shamolda,  
Yengil parvoz etaman.  
Mahkam tuting ipimdan,  
Yo'qsa, uchib ketaman.




**Q**ora oyha tugmasin,  
Asto bosqanim hamon.  
Ko'z o'ngimda rango rang,  
Manzaralar namoyon.




**Q**anotsiz ko'kka uchdim,  
Moviy samoni quchdim.  
Uchdi boshimdan hushim,  
Qarasam, ekan ...



**D**ono, zukko «do'stim bor,  
Hikmatning koni o'zi.  
Ezgulikka yetaklar,  
So'zi — aqning ko'zi.



**B**olalarga ermakman,  
Bahordan bergum darak.  
Shaklim, turim xilma-xil,  
Nomimdir mening ...



**O**'qish, yozish, hisobda,  
Beminnat dastyor o'zi.  
Ammo bir «lekin»i bor,  
Toksiz yonmaydi ko'zi.



**I**KKI qavat po'stim bor,  
Kech kuzakda pishaman.  
Qoqib kaltaklamanglar,  
Pishsam, o'zim tushaman.



**B**ahorning elchisiman,  
Shifobaxshan, xushbo'yman.  
Yangi unib chiqqanda,  
Juda ko'rkmam, xushro'yman.



**D**alalarda yashayman,  
Jarangdordir ovozim.  
To'rqovoqqa tushishga,  
Sababchidir sho'x «sozi»m.



**K**eng sahrodir makonim,  
Yelkamda qo'sh tog'im bor.  
Necha oylab yursam-da,  
Suvsizlik qilmaydi kor.



**H**ar tong mayin jilmayib,  
Mo'ralaydi xonamga.  
Uning nurli chehrasi,  
O'xshar xuddi onamga.



**H**ech kimga bermay ozor,  
Suv tubida yashayman.  
O't-o'lan, qurt-qumursqa,  
Terib, rizqim oshayman.



**B**ezorman, gullardan,  
Sharbat yig'ib yuraman.  
Lekin qo'l tekkitangiz,  
Ayamay nish uraman.

